



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024-YIL YANVAR-NOYABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 71-202-86-66
www.toshvilstat.uz

Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



(2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6774 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 425 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 6,3 % i) Chirchiq shahriga, 187 tasi (2,8 %) Yangiyo'l shahriga, 969 tasi (14,3 %) Zangiota tumaniga, 593 tasi (8,8 %) Qibray tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2024- yil 1- dekabr holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, %da
Jami:	6774	1154	100,0
Nurafshon sh	147	36	2,2
Olmalik sh	262	42	3,9
Angren sh	338	59	5,0
Bekobod sh	165	28	2,4
Ohangaron sh	170	26	2,5
Chirchiq sh	425	50	6,3
Yangiyo'l sh	187	24	2,8
Oqqo'rg'on	152	36	2,2
Ohangaron	234	44	3,5
Bekobod	173	53	2,6
Bo'stonliq	244	42	3,6
Bo'ka	100	41	1,5
Quyichirchiq	241	39	3,6
Zangiota	969	128	14,3
Yuqori Chirchiq	418	65	6,2
Qibray	593	75	8,8
Parkent	452	133	6,7
Piskent	121	20	1,8
O'rta Chirchiq	272	51	4,0
Chinoz	189	28	2,8
Yangiyo'l	342	55	5,0
Toshkent	580	79	8,6

Toshkent viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 119290,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,0 % ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko'rsatkichlari o'sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o'sayotganligini ko'rsatadi.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Toshkent viloyatida 2024- yilning yanvar- noyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 38815,0 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.






Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 100637,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

B seksiya

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5133,1 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,3 % ini tashkil etdi.



Yanvar- noyabr

2022- y 3577,0 mlrd. so'm

2023- y 4198,9 mlrd. so'm

2024- y 5133,1 mlrd. so'm

FHI, % da

2022- y 81,5%

2023- y 102,2%

2024- y 102,3 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **100637,1** mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **107,4 %** ini tashkil etdi.

Yanvar- noyabr

2022-y. 70130,0 mlrd so'm

2023-y. 78783,5 mlrd so'm

2024-y 100637,1 mlrd so'm

FHI, % da

2022-y. 105,7 %

2023-y. 103,5 %

2024-y 107,4 %



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

O'simlik yog'i (tozalangan)		Pishloq va tvorog		Yumshoq bug'doy va spelta uni	
2024	161,3	2024	144,0	2024	89,7
2023	260,0	2023	69,3	2023	70,6
2022	182,4	2022	109,2	2022	100,6
Pivo		Aroq ming litr (100 % spirt)		Uzum vinosi	
2024	92,8	2024	160,0	2024	72,5
2023	103,6	2023	65,1	2023	44,4
2022	99,8	2022	61,9	2022	171,3
Portlandsement		Paxta chigiti		Kalava ip	
2024	149,3	2024	69,8	2024	108,9
2023	68,0	2023	79,0	2023	73,8
2022	82,0	2022	99,8	2022	77,0
Ammoniy sulfat		Ammoniy nitrat		Etil spirti	
2024	95,8	2024	100,6	2024	89,9
2023	109,2	2023	90,2	2023	100,3
2022	80,8	2022	95,0	2022	103,5

2024- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 32,1 ming tonna o'simlik yog'i (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 161,3 % ni tashkil etgan), 5,7 ming tonna suyultirilgan sut (160,0 % ni) ishlab chiqarilgan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar- noyabr	2024- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	237,9	213,3	-24,5
Shakar, ming t.	352,4	245,1	-107,3
Paxta tolasi ming t.	41,2	24,9	-16,3
Portlandsement, ming t.	2686,6	4011,5	1324,9

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 9,2 % (2023- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 132,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 7,7 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,7 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,1 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,0 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2023- yilning yanvar- noyabr oylarida – 1,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali 9,8 % (8,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 49,9 % (50,6 %) va quyi texnologiyalisi – 22,8 % (24,4 %)ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati 44428,9 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 37,2 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 99,5 % ga koʻpaydi.


2023- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati 37344,2 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 40,4 % ni etdi oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 98,7 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 4540,6 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,3 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,8 %ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 112,2 %ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 12840,3 mlrd soʻmni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,1 % ni tashkil etgan.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 3484,1 mlrd so'mni tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 125,6 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 97,5 % ni tashkil etgan holda ishlab chiqarish hajmi 5237,4 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar- noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 115,3 % ni tashkil etgan.




Kiyim ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 %, fizik hajm indeksi 104,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 3790,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 113,4 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni, fizik hajm indeksi 108,7% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5454,9 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,1 % ni fizik hajm indeksi esa 98,8 % ni tashkil etgan.

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 202,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2831,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni fizik hajm indeksi esa 131,8 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 148,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3071,1 mlrd so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni fizik hajm indeksi esa 86,6 % ni tashkil etgan.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 103,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2838,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni fizik hajm indeksi esa 113,9 % ni tashkil etgan.




Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 180,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2518,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni fizik hajm indeksi esa 200,8 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,2 %, fizik hajm indeksi 143,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 10960,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,2 % ni fizik hajm indeksi esa 132,4 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024- yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13152,5 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,0 % ni) tashkil etadi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 % ga ko'payganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr	2024- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt s	18413,1	18254,9	-158,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2721,2	2900,1	178,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 368,1 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,3 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar- noyabr	2024- yil yanvar- noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	62,3	70,7	8,4
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	1,1	2,5	1,4


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 70,7 mlrd so'm yoki 13,5 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek, Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 2,5 mlrd so'm va 2,4m ga ko'paygan.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 15928,0 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 13,4 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar- noyabr



2024- yil yanvar- noyabr



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd soʻm)da

2023- yil yanvar- noyabr



2024- yil yanvar- noyabr




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi

2024- yilning yanvar- noyabr oylarida

(jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 29358,0 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,5 % ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.

**Jami sanoat
mahsulotlari hajmidagi
ulushi,
% da**



**Kichik biznes subyektlari
tomonidan ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari hajmi
(mlrd soʻm)**

